

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

USTOZLARGA TA'ZIM

Izzatilla Zohidjonov Sunnatilla o'g'li

272-sonli maktab 11-sinfo'quvchisi

Annotasiya: Agar dunyoda muallim bo'lmasa... Ushbu maqola orqali ustozlik qay darajada ulug' kasb va mahorat talab qilishi, og'ir mehnat orqali muvaffaqiyatga erishayotgan muallimlar hayoti to'liq ochib beriladi.

Kalit so'zlar: muallimlik, "self-study", Sharqiy Osiyo

Ustoz-insoniyatning bir tayanch posboni. Ularsiz biz go'yo hech kimmiz. Ustoz deganda ko'pchilik o'qituvchini tushunishadi, biroq har bir kasbning va sohaning o'ziga xos va mos ustozi bor. Ular o'z sohalarining yetuk namoyondalari, jamiyatga eng zo'r soha vakillarini yetishtirayotgan mard va jasur insonlardir. Ular bizga hayotimizning eng boshlang'ich pallasida qay tartibda boshlashimizdan to yakunlanishimizgacha o'rgatishadi. Aslida ustoz nega kerak? Biz bilamizki quroni karimda shunday bir qissa zikr etilgan: "Bir kuni Alloh farishtalardan so'radi: "Men bir yer yuziga o'zimning xalifamni yaratmoqchiman ya'ni odamizotni deganda, farishtalar unga e'tiroz sifatida: "Nega yer yuzida qon to'kadigan insoniyatni yaratasan?" - deb. Shunda Alloh sizlar men bilgan narsani bilmaysiz dedi. Shu voqeadan so'ng Odam Ato yaratildi va Alloh uni farishtalar oldiga olib borib, farishtalardan so'radi: "Menga mana bu narsalar nomini aytib beringchi!" Farishtalar bo'lsa: "Yo parvardigorum sen bildirgandan boshqa hech narsani bilmaymiz" - deyishdi. Shunda Odam Atoga buyurib barchasini aytishi so'raldi. Xulosa shuki, hech bir inson hatto hayvonlar ham, jonzotlar ham dastlab kimdir ta'siri ostida o'rgatilinmagunicha yetuk yoki ustasi farang bo'lolmaydi. Umumiy qilib aytganda esa, Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.

Yana bir muhim muammo deymizmi yoki zamon talabimi, xullas yurtimizga kelish arafasida va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida avjiga chiqqan tizim-ustozsiz ta'lim yoki ularning tilida aytganda "self-study" o'qitish tizimi. Hozirda ushbu tizimga ko'plab rivojlangan mamlakatlar o'tib kelyapti.

Ushbu tizim yoki robotlar dars o'tishi bu zamon talabimi yoki rivojlanish asri uchun muhim tamoilmi?

Ko'pgina sun'iy intellektlar egallagan ushbu kasb kelajakda katta muammolar olib kelishi mumkin. Namuna sifatida aytadigan bo'lsam, ishlash uchun bo'sh o'rinalar yetishmasligi yoki ushbu kasb jahon yo'qolib borayotgan kasblar qatoriga kirishidir, ammo nima bo'lganda ham ushbu kasb egalari abadiy yashashiga umid bog'laymiz. Aslini olganda, har bir ishda yaxshilik izlash va albatta ustozlik kasbi haqiqiy buyuk kasb egaligini yana bir bor isbotidir. Gapni idalosi shuki, ustoz otadek ulug'dir. Insoniyat uchun foydali bo'lgan har qanday ilm islomda ardoqlanadi. Alloh taolo Qur'oni karimning bir nechta oyatlarida insoniyatni dunyonи obod qilish uchun yaratganini bayon qilgan va kishilarni borliq haqida tafakkur qilishga, uni o'rganishga targ'ib qilgan. Zero, Alloh ilm qadrini baland qildi va uning orqasidan ilmli kishilar va ustoz, murabbiylarning ham qadrini yuksak qilib qo'ydi. Va: "Sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan kimsalarni Alloh baland daraja (martaba) larga ko'tarur", dedi" (Mujodalal surasi).

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

Alloh hurmatlagan va darajasini baland qilgan narsalarni e'zozlash va ulug'lash qalbdagi taqvodan dalolat ekanligi Qur'oni karimda juda ko'p o'rirlarda ta'kidlanadi.

Mazkur oyati karimada Allah taolo ilm egallagan va uni boshqalarga yetkazishda xolis jiddiy sa'yi-xarakat qiladigan xolis ustozlarning obro'-e'tiborlarini yanada yuqori ko'tarib qo'yishini va'da qilmoqda. Yosh avlodni teran bilimli va yetuk mutaxasis bo'lib yetishishida ustoz va murubbiylarning ishlarida beminnat xizmatlari ulkan. Ular hurmatga, e'zozga, xalq iltifotiga sazovor bo'lishgan. Ularning birortasi haligacha shogirdiga «Men otangdan ulug'man», degan aqidani aytmaganlar. Albatta kamtarinlik ustozlarga xos odat.

Olimlik, ustozlik maqomi naqadar ulug' ekanligini xaqida Janobi Payg'ambarimiz shunday marxamat qiladilar: "Olimning, ya'ni uning boshqalardan ortiqligi oydin kechada oyning boshqa yulduzlardan ziyoda nurli ekaniga o'xshaydi.

Ustoz va muallimga o'zni past tutib, xokisor bo'lish najot eshigi, ilm tahlil qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Dinimiz shunga buyuradi, shunga o'rgatadi. Bu ustozlarning shogirdlari ustidagi haqlaridandir. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ustozlar xaqida salafi solihinlar juda ko'p ibratli so'zlarni aytib o'tganlar.

Hazrati Ali roziyallohu anhu: "Men o'zimga bir dona harf o'rgatgan kishining quliman. Istasin, sotib yuborsin, istasin, qul qilib olsin!", degan ekanlar.

Mazhabboshimiz Imomi a'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh shunday deganlari rivoyat qilinadi: "Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uyi tomonga oyog'imni uzatmaganman. Holbuki, uning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko'cha bor edi. Hammod vafot etgandan so'ng qachon namoz o'qisam har safar albatta ota-onamga qo'shib, unga ham Allohdan mag'firat so'raganman. Nafaqat ustozim balki, kimdan nimadir o'rgangan bo'lsam yoki kimdir menga nimadir o'rgatgan bo'lsa, albatta o'sha kishilar uchun ham doim Allohdan mag'firat so'rayman".

"Hidoya" muallifi, shayxulislom Burhoniddin Marg'inoniy hikoya qiladilar: "Buxoroi sharifning ulug' olimlaridan birlari dars xalqasida edilar. Dars asnosida goho tashqari tomonga qarab o'rinalidan turib qo'yar edilar. Ziyorak toliblar buning sababini so'rashdi. U zot kamoli ehtirom bilan: "Mehribon ustozimning farzandlari ko'chada bolalar bilan o'ynab yuribdilar. Gohida o'yin bilan mashg'ul holda eshik oldiga kelsalar, ustozim hurmatidan darhol o'rnimdan turyapman", deb javob qildilar.

Manbalarda muallimlarga nisbatan rioxaya qilish lozim bo'lgan odoblar sanalganda ayrim diqqatni tortadigan joylariga duch kelamiz: "O'quvchi agar muallimini bir to'da insonlar ichida uchratib qolsa, jamoaga salom bergach, muallimiga alohida salom berib, mulozamat qilishi kerak". Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, tolibi ilm ustozining roziliginini topishga intilishi va uni norozi qiladigan, xafa qiladigan, ko'nglini og'ritadigan ishlardan saqlanmog'i lozim. Chunonchi, Abdurahmon Jomiy aytganlaridek:

Jahonda bo'lmasa muallim agar,

Xayot xam bo'lmasdi go'zal bu qadar.

Ustoz va muallim xayot bo'stonidagi niholning daraxtga aylanishi uchun beminnat xizmat qiladilar. Yoshlarni ma'naviy yetuk va barkamol inson bo'lib tarbiyalashda tabarruk ustoz va

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

murabbiylarimizni o‘rni beqiyosdir. Ustozu muallimlar ma’naviyat osmonida musaffo ziyo taratib turgan yo‘lchi yulduzdirlar, qaysiki, ular tufayli odamlar to‘g‘ri yo‘lni topadilar, ularning sharofati bilan jaholat zulmatlaridan omonlik qirg‘og‘iga yetishadilar. Faqat yaxshilik qilish va ilmning bebaholigini, odamiylikni har narsadan ustun qo‘yadilar. Bunday kishilar xalqning, Vatanning qalqonidirlar. Doimo sizga ta’zimdamiz aziz ustozlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.muslim.uz sayiti
- 2.Imom Buxoriy "Sahihul Buxoriy" hadislar to'plamini
- 3."Hidoya" Burhoddin Marg'inoniy